



AMIR TEMUR – BUYUK SARKARDA VA DAVLAT ARBOBI

“Shahrisabz” davlat muzey-qo‘riqxonasi

Ilmiy kotibi Umida Yusupova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo tarixida alohida o‘rin egallagan buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatida tanilgan Amir Temurning harbiy faoliyati ilmiy tahlil qilinadi. Unda Temurning harbiy strategiyasi, qo‘shin tuzilishi, jangovar taktikasi hamda davlat boshqaruvi bilan bog‘liq jihatlari yoritiladi. Shuningdek, Temuriylar davlati harbiy tizimining tarixiy ahamiyati va uning bugungi davr harbiy tafakkuriga ta‘siri ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, sarkarda, harbiy strategiya, Temuriylar davlati, Temur tuzuklari, Zafarnoma, jang taktikasi, markazlashgan davlat, diplomatiya, harbiy meros.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ военной деятельности великого государственного деятеля и полководца Amir Temur, занимавшего особое место в истории Центральной Азии. В ней освещаются военная стратегия Темура, структура войск, боевая тактика, а также аспекты, связанные с государственным управлением. Кроме того, раскрывается историческое значение военной системы государства Темуридов и её влияние на современное военное мышление.

Ключевые слова: Amir Temur, полководец, военная стратегия, государство Темуридов, Temur tuzuklari, Zafarnoma, военная тактика, централизованное государство, дипломатия, военное наследие.

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the military activity of the great statesman and commander Amir Temur, who holds a significant place in the history of Central Asia. It examines Temur’s military strategy, army structure, combat tactics, and aspects related to state governance. The article also highlights the historical importance of the military system of the Timurid state and its influence on modern military thought.



Keywords: *Amir Temur, commander, military strategy, Timurid state, Temur tuzuklari, Zafarnoma, battle tactics, centralized state, diplomacy, military heritage.*

Jahon tarixida yirik davlat arboblari va sarkardalar ko'p bo'lgan. Biroq ularning ayrimlari o'zining harbiy iste'dodi, strategik tafakkuri va davlat qurilishidagi faoliyati bilan alohida ajralib turadi. Ana shunday tarixiy shaxslar qatorida Amir Temur nomi alohida tilga olinadi. XIV asr o'rtalarida Movarounnahr hududida siyosiy parokandalik hukm surgan edi. Turli mahalliy amirlar o'rtasidagi kurashlar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va iqtisodiy qiyinchiliklar mamlakat barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Ana shunday murakkab sharoitda Amir Temur tarix sahnasiga chiqib, qisqa vaqt ichida kuchli markazlashgan davlat barpo etishga muvaffaq bo'ldi. Temurning buyuk sarkarda sifatidagi faoliyatini o'rganishda bir qator tarixiy manbalar muhim ahamiyatga ega. Xususan, Temur tuzuklari hamda Zafarnoma asarlarida uning harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi va strategik qarorlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Amir Temur ibn Turag'ay Muhammad bahodur hijriy 736 sichqon yilida, sha'bon oyining 25 kunida (1336-yil 9 aprel) Kesh (hozirgi Shahrisabz) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Yoshligidan u harbiy mashg'ulotlarga qiziqqan va jang san'atini chuqur o'rganishga intilgan. Uning harbiy faoliyatining dastlabki bosqichlari mahalliy amirlar xizmatida bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Temur o'z faoliyatining ilk yillaridayoq siyosiy vaziyatni chuqur tahlil qila olish qobiliyatiga ega ekanini ko'rsatdi. U turli qabila va urug'lar bilan ittifoqlar tuzish orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirdi. Bu esa keyinchalik markazlashgan davlat barpo etish uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi. Bolalikdan kurash, ov hadisini olgan Amir Temur, akademik V.V.Bartol'd aytganidek, vallomatlik-jangavorlik ruhida tarbiyalangan edi. Oriyatini qo'ldan berish uning uchun o'lim bilan barobar edi. Keyinchalik u hayratomuz shonu-shavkatga erishgach, o'tkazilgan quriltoyalarda mudom bir naqlni takrorlar ekan. Emishki, ikki sayyoh, biri arab, biri eroni, behudu sahroda adashib qolishibdi. Eroni suvini ichib tamomlabdi. Arabning ko'zachasida bir qultum obi hayot qolibdi. Oftob tig'ida eroni sulayib, tamomila qadordan qolibdi. O'limi muqarrar bo'lib, so'nggi kuchini yig'ib hamrohiga debdi: "Sen arabsan xalqingni



oliyanob deb eshitganman. Agar shu rost bo'lsa, suvingni menga ber, xalqingni oliyanobligini ko'rsat". Arab bir zum uylab, xurjundan ko'zasini chiqarib, uni o'lim bilan olishayotgan sherigiga o'zati: " Xalqimning oliyanobligi oldida mening o'limim hech narsa emas, men bu udumga shak keltirmayman, mana suv ichaqol" debdi. Temur bu naqlni bejizga takrorlamagan, unad faqat xalqning ozodligi birinchi o'rinda ko'ndalang turgan va hokimiyat nihoyat kuchli darajada bo'lgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Temur harbiy yurishlarni puxta rejalashtirgan. Har bir jang oldidan razvedka ma'lumotlari to'plangan, dushman qo'shinining soni, joylashuvi va imkoniyatlari chuqur o'rganilgan¹. Amir Temur qisqa vaqt ichida markazlashgan va qudratli davlat barpo etib, o'z nomini jahon tarixiga oltin harflar bilan yozdirgan. U Movarounnahrda tarqoqlikka barham berib, yagona markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'lgan. Sarkarda sifatida Amir Temur ko'plab harbiy yurishlar olib borgan. Eron, Iroq, Kavkaz, Hindiston va Kichik Osiyogacha bo'lgan hududlarda g'alabalar qozongan. 1402-yilda Usmoniylar sultoni Bayezid I ustidan qozongan g'alabasi uning harbiy mahoratini butun dunyoga namoyon etgan. Amir Temur davlat boshqaruvida ham adolat va qat'iy tartibni ustuvor qo'ygan. Uning siyosiy va harbiy qarashlari Temur tuzuklari asarida bayon etilgan. Ushbu asarda davlatni boshqarish, qo'shin tuzilishi, rahbarning mas'uliyati va adolat tamoyillari haqida muhim fikrlar keltirilgan.

Amir Temur qo'shini o'z davri uchun juda mukammal tashkil etilgan harbiy tuzilishga ega edi. Qo'shin o'nlik tizim asosida tashkil etilgan bo'lib, bu tizim boshqaruvni ancha yengillashtirgan edi. Harbiy tuzilma quyidagicha bo'lgan: o'nboshi, yuzboshi, mingboshi, tumanboshi tizimi qat'iy saqlangan va jangda har bir bo'linma o'z vazifasini aniq bajargan. Bunday tizim qo'shin ichida aniqlik yaratgan va jang vaqtida tezkor qarorlar qabul qilish imkonini bergan. Temur qo'shinida intizom alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Har bir askar o'z vazifasini aniq bilgan va buyruqlarga qat'iy rioya qilgan. Qahramonlik ko'rsatgan askarlar mukofotlangan, intizomsizlik esa qat'iy jazolangan².

¹ Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent, 1997.

² Temur tuzuklari. – Toshkent, 1991.



Amir Temurning harbiy strategiyasi o'zining puxta rejalashtirilgani bilan ajralib turadi. U janglarda quyidagi usullardan keng foydalangan: tezkor hujum, qanotlardan zarba berish, dushman qo'shinini chalg'itish, qo'shinlarni bir necha guruhlariga bo'lib hujum qilish kabi taktikalarni qo'llagan. Temur harbiy yurishlarda geografik sharoitlardan ham mohirona foydalangan. Masalan, tog'li hududlarda dushmanni tor yo'laklarda qarshi olish yoki cho'l hududlarida dushman ta'minot yo'llarini uzish kabi strategiyalar qo'llangan. Uning harbiy san'atidagi yana bir muhim jihat – psixologik ustunlikni ta'minlash edi. Temur ko'pincha dushman qo'shiniga qo'rquv solish orqali jang natijasini oldindan hal qilgan.

Amir Temurning harbiy faoliyati davomida ko'plab yurishlar amalga oshirilgan. Ularning ayrimlari jahon tarixida muhim voqea sifatida baholanadi. Yirik harbiy yurishlardan: Hindiston yurishi bo'lib, 1398-yilda Amir Temur Hindiston hududiga yurish qiladi. Bu yurish natijasida Dehli egallanadi. Ushbu yurish Temurning harbiy qudratini yana bir bor namoyish etgan. Oltin O'rda bilan kurash- Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi kurashlar ham tarixda muhim o'rin egallaydi. Bir necha janglardan so'ng Temur ustunlikka erishadi va Oltin O'rda kuchsizlanadi. Yana bir muhimi Anqara jangi bo'lib, 1402-yilda Amir Temur va Boyazid I o'rtasida Anqara yaqinida mashhur jang bo'lib o'tadi. Ushbu jangda Temur qo'shini g'alaba qozonadi va Boyazid I asir olinadi. Bu voqea Yevropa tarixiga ham katta ta'sir ko'rsatgan³.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki yirik davlat arbobi ham edi. U barpo etgan Temuriylar davlati Markaziy Osiyoda siyosiy barqarorlikni ta'minladi. U shaxsiy hayotida qat'iyatli bo'lish bilan birga, askarlar va amaldorlariga talabchan bo'lgan. Temurning shaxsiyati haqida "Zafarnoma" va boshqa manbalarda uning donolik va adolatni qadrlagani haqida ma'lumot keltirib o'tilgan. Ba'zi tarixchilar uni shafqatli va bag'rikeng, boshqalar esa qat'iy va qattiqqo'l rahbar sifatida tasvirlaydi. Temur harbiy tizimi keyingi davrlarda ham ko'plab davlatlar tomonidan o'rganilgan. Uning strategik tafakkuri, qo'shin

³ Ahmedov B. Amir Temur. – Toshkent, 1996



boshqaruvi va intizomga asoslangan harbiy tizimi bugungi harbiy nazariyada ham muhim o‘rin egallaydi.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki kuchli davlat arbobi va mohir diplomat sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallagan. U qo‘shni davlatlar bilan diplomatik aloqalarni mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratib, xat yozish va elchilar yuborish tizimini yo‘lga qo‘ydi. Temur davrida hatto Yevropa davlatlari bilan ham diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan bo‘lib, xususan, Italiya shaharlari hamda Rim papasi tomonidan unga elchilar yuborilgan. Diplomatiyada Temur qat‘iyatli, shu bilan birga adolatli siyosat yuritgan. Davlatni mustahkamlashda iqtisodiy islohotlar ham muhim o‘rin tutgan. Temur moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash maqsadida soliq tizimini tartibga soldi. Savdo yo‘llarini tiklab, ichki va tashqi savdoni rivojlantirishga katta e‘tibor berdi. Shuningdek, qishloq va shaharlar rivoji, oziq-ovqat ta‘minoti va bozorlarni tartibga solish bo‘yicha aniq qoidalar ishlab chiqildi. Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va savdo rivojlangan. Bu esa davlatning iqtisodiy va siyosiy qudratini yanada mustahkamlagan. Amir Temur Samarqandni yirik ilmiy va madaniy markazga aylantirdi. Uning tashabbusi bilan Qur‘on maktablari, madrasalar, masjidlar va maqbaralar bunyod etildi. Harbiy yurishlardan keyin u turli mamlakatlardan hunarmandlar va olimlarni olib kelib, shaharda ilm-fan va hunarmandchilikning rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur jahon tarixida buyuk sarkarda sifatida muhim o‘rin egallaydi. Uning harbiy strategiyasi, qo‘shin boshqaruvi va siyosiy qarorlari Temuriylar davlatining kuchli va barqaror bo‘lishini ta‘minlagan. Temur yaratgan harbiy tizim o‘z davri uchun juda mukammal bo‘lib, ko‘plab janglarda g‘alaba qozonishga imkon bergan. Shu sababli Amir Temur nomi nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon harbiy tarixida ham alohida hurmat bilan tilga olinadi. Temuriylar davri Sharq uyg‘onishining muhim bosqichi sifatida tarixda muhrlanib qoldi. Amir Temurning avlodlari Temuriylar sulolasi orqali hukmronlikni davom ettirdilar. Bu davrda ilm-fan, san‘at, adabiyot va me‘morchilik yuksak darajada rivojlandi. Temuriylar davrida yaratilgan ko‘plab tarixiy obidalar bugungi kungacha saqlanib, o‘sha davrning buyuk madaniy merosini namoyon etib kelmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1991.
2. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Fan, 1997.
3. Ahmedov B. Amir Temur. – Toshkent: Sharq, 1996.
4. Mo‘minov I. Amir Temur va uning davri. – Toshkent, 1968.
5. Bartold V.V. Turkiston mo‘g‘ullar istilosi davrida. – Toshkent, 1990.
6. S. Toshkandiy “Temurnoma: – Toshkent, 1990.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005.